



**O'QUVCHILARNI KASB – HUNARGA O'RGATISHDA PROFESSIONAL TA'LIM
 MUASSASALARINING O'RNI VA BUNDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN
 JARAYONLAR**

Mo'minova Shohida Izzatillayevna

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 1-son kasb hunar maktabi

Qishloq xo'jaligi kooperativ ish yurituvchi fani o'qituvchisi,

Ishlab chiqarish ta'lism ustasi

Artikbayeva Kamola Zokir qizi

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 1-son kasb hunar maktabi

Qishloq xo'jaligi mashinalari uskuna va jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish fani

o'qituvchisi, Ishlab chiqarish ta'lism ustasi

Annotatsiya: *Malaka tizimi rivojlangan davlatlarda sinovdan o'tgan, mehnat bozori, professional ta'lim, kasbga o'qitish va o'rgatish tizimining uyg'unlashuvi sifatida muvaffaqiyat qozongan. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb hunarga o'rgatishda professional ta'lim muassasalarining o'rni va bu tizimda amalga oshirilayotgan ishlar haqida malumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *kasb-hunar, ish, mehnat, dual ta'lim, professional ta'lim, kasbga yo'naltirish, kasb – hunar maktabi, soha, o'quvchi.*

XXI asr bo'sag'asida juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi, dunyo kartasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohatlarning hammasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiyati hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bu esa shakllanayotgan o'smir yoshlarning o'zining psixologik imkoniyatlarini bilishi, o'zligini anglashi, har qanday sharoitda ham turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyor turishi, yangicha fikrlash va mulohaza qilishi, mehnat sharoitida ro'y berayotgan psixologik jarayonlarni to'g'ri idrok etishi, qobiliyatini rivojlantirish kabi vazifalarni kun tartibiga qo'ymoqda.

Yoshlarini kasbga yo'naltirish ishlariga ilmiy jihatdan qaraganda dastlabki bosqich bo'lib, bu muhit va jamiyat bilan hamkorligida uzoq vaqt davom etadigan murakkab psixologik jarayondir. Boshqacha aytganda, nafaqat umumiyl va maxsus

qobiliyatlar, shaxs xususiyatlari, balki, shu bilan birga, shaxsga moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ta'sir etuvchi tashqi muhit ham kasb tanlashga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ushbu jarayonlarda har bir o'smirda bo'lajak kasbga ongli va to'g'ri, muayyan sohaga nisbatan ozmi-ko'pmi ijtimoiy, ijobjiy munosabatlar shakllanadi. Shu sababli o'quvchining kasb tanlashga tayyorligi deganda, kasbni to'g'ri



tanlashga imkon beradigan kasbiy ta'limning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan, qulay imkoniyatlarni yuzaga keltiradigan shaxs rivojlanishining muayyan bosqichi yoki holati tushuniladi. Bu esa kasbga yo'naltirish faoliyatining maqsadi asosan o'quvchi yoshlarning bo'lajak kasbini ongli va mustaqil ravishda to'g'ri tanlashlariga qaratilgan bo'lishi kerak, degan fikrga kelishga asos bo'ladi.

O'tkazilgan pedagogik-psixologik kuzatishlar, tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, yuqori sinf o'quvchisi birinchi galda sinf jamoasining a'zosi sifatida,

pedagogik ta'sirning sifatida namoyon bo'ladi. Turli psixologik omillar bu jarayonga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muayyan kasbni tanlashi lozim bo'lgan o'quvchi shaxsining shakllanishi bu kasbga nisbatan munosabatining qanchalik ongli darajada ekanligi, o'quvchi faoliyatining o'quv va ishlab chiqarish jarayonidagi birligi, ma'lum ishlab chiqarish borasida mehnat sharoitining ustoz-shogirdlik, murabbiylik ishlarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi singari muhim omillarga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to'g`risida"gi 2019 yil 6 sentabrdagi PF-5812-sod farmoniga muvofiq 2020-2021 o`quv yilidan boshlab xalqaro klassifikatorga mos keluvchi ta'lim dasturlari bo'yicha kasb o'rgatadigan 339 ta kasbhunar maktablari, 211 ta kollej hamda 176 ta texnikumlar tashkil etilishi belgilangan edi. Mazkur farmonning ijrosini faoliyat yuritayotgan professional ta'lim muassasalari misolida ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda Respublikamiz ta'lim tizimining barcha bo`g`inlari shu jumladan professional ta'lim muassasalari ham yangi texnologiyalar, kasb – hunar o'rganish uchun zarur quroq aslahalar, ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlanmoqda. Pedagoglarga qo'yilgan talablar asosida o`z ish faoliyatlariga yangiliklar kiritib bormoqdalar. Fan ta'limni rivojlanishi barobarida zamonaviy pedagog bo`laman degan har bir o`qituvchi o`z faoliyati davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali dars mashg`ulotlarini boyitib boradi.

Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtida ular o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini o'rganish va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o'quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilishi kerak.

Professional ta'lim tizimini rivojlantirish uchun respublikamizda ko'plab ishlar olib borilmoqda, tegishli qarorlar qabul qilinyapti. Jumladan "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi Hukumat qarori qabul qilingan bo'lib (dual ta'lim – bu ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib boruvchi tizim), u quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Dual ta'limni tashkil etish uchun hokimliklar va manfaatdor vazirliklar tomonidan o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi va taklif tayyorlanadi.



- Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili 1 iyulgacha dual ta'lim bo'yicha kadrlar tayyorlanadigan ta'lim muassasalarini belgilaydi.
- Tanlangan ta'lim muassasalari belgilangan kvotalar bo'yicha o'quvchilarni qabul qiladi.
- Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzadi. Shartnoma tashkilot va o'quvchi o'rtasida ham tuziladi. Bunda o'quvchi uchun tashkilotda muayyan ish o'rni ajratiladi.
- O'quvchilar bir haftada kamida ikki kun ta'lim oladi qolgan kunlar ishlaydi. O'quvchiga ishlagan kunlari uchun haq to'lanadi.

Ushbu hujjat bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlangan:

- dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlarini;
- dual ta'limda o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotini olib borish tartibini;
- dual ta'lim ishtirokchilarining vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilashni.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, shuningdek tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan idoralarga quyidagilarni amalga oshirish topshirilgan:

- o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlash;
- professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim jarayonini tashkil etish ustidan tizimli nazorat o'rnatish;
- dual ta'limni takomillashtirish va metodik ta'minotini mustahkamlash yuzasidan ilg'or xalqaro tajribalarni tizimli o'rganish ishlarini tashkil etish.

Ta'lim muassasalari kadrlarga ehtiyoji bo'lgan tashkilotlar bilan shartnomalar tuzadi. Shuningdek shartnoma tashkilot va talabalar o'rtasida tuziladi, bunda talabaga muayyan ish taqdim etiladi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanib, bu yerda 2 yil davomida umumta'lim va mutaxassislik fanlari integratsiyalashgan dasturlari asosida o'qitiladi. O'quvchiga o'zi tanlagan kasb bo'yicha bilim beriladi.

O'quvchi kasb – hunar maktabini tugatgandan keyin o'zi tanlagan kasbi bo'yicha o'rta – maxsus ma'lumotli mutaxassis bo'lib chiqadi va kasbi bo'yicha tegishli diplomga ega bo'ladi. Bu bilan u o'z ish faoliyatini boshlashi yoki oliy ta'lim olish uchun hujjat topshirishi ham mumkin bo'ladi.

Bugun professional ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqboli, samara va natijasi ish beruvchi va ta'lim muassasasining o'zaro hamkorligiga, ishlab



chiqarish va o'quv jarayonining uzviyiligi, milliy malaka tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi, mukammal professional standart va sifatli ta'limga bog'liq. Bu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi yaqin istiqboldagi taraqqiyotimiz jadallashuvini ham belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5812-sod Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4500926>
2. Vazirlar Mahkamasi tomonidan 29.03.2021 yildagi «Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida»gi 163-sod qarori.
3. www.norma.uz
4. www.yuz.uz
5. Internet materiallari.